

SHAHAR MARKAZIDAN TASHQARIDA – ZAMONAVIY AEROPORT SARI QADAM

Qabulova Sarvinoz Rustam qizi

Dotsent, t.f.n. Tursunov Zakir Shuxratovich

“Toshkent davlat transport universiteti”, Toshkent, O‘zbekistan

Annotatsiya: Mazkur maqolada Toshkent shahridagi Islom Karimov nomidagi xalqaro aeroportga yaqin joylashgan aholi yashash hududlarida samolyotlarning uchish va qo‘nishi bilan bog‘liq shovqin darajasi o‘rganildi. Tadqiqot davomida maxsus shovqin o‘lchash asboblari yordamida real vaqt rejimida o‘lchovlar amalga oshirildi. Olingan natijalarga asosan aviatsiya shovqinining aholi salomatligi va yashash sharoitlariga bo‘lgan ta‘sirini baholash imkonini berdi. Shuningdek, maqolada aeroportning shahar ichida joylashuvi bilan bog‘liq ekologik muammolar, xususan, shovqinning ta‘sir qilinishi yoritildi. Tadqiqot natijasiga ko‘ra shovqin omilini inobatga olib, aeroportni shahar tashqarisiga ko‘chirish zarurati ko‘rsatilgan.

Annotation: This article examines the noise levels associated with aircraft takeoff and landing in residential areas located near Islam Karimov Tashkent International Airport. During the study, real-time measurements were conducted using specialized noise-measuring instruments. Based on the obtained results, it was possible to assess the impact of aviation noise on public health and living conditions. The article also highlights environmental issues related to the airport’s location within the urban area, particularly the effects of noise pollution. The findings indicate the necessity of relocating the airport outside the city, taking the noise factor into consideration.

Kalit so‘zlari: xalqaro aeroport, Toshkent shahri, samolyot, shovqin, ekologiya, o‘lchash jarayoni.

Keywords: international airport, Tashkent city, aircraft, noise, ecology, measurement process.

Hozirgi kunda mamlakatimizda shahar ichida joylashgan aeroportlar aholining kundalik hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Asosan Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti O‘zbekiston Respublikasining eng yirik va asosiy havo transporti obyektlaridan biri bo‘lishiga qaramasdan bu obyekt Toshkent shahrining markaziy qismiga yaqin hududda va aholisi zich joylashgan tumanlar bilan o‘ralgan holda joylashgan. Aeroportning shu tariqa joylashuvi bir qancha ekologik va ijtimoiy muommolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan samolyotlarning uchib chiqishi va qo‘nishi jarayonida sodir bo‘ladigan kuchli shovqin to‘lqinlari aeroportga yaqin hududlarda istiqomat qiluvchi aholi uchun doimo noqulaylik tug‘dirib kelgan.

Shovqin – bu inson uchun noxush bo‘lgan, turli chastota va intensivlikdagi tovushlar yig‘indisiga aytiladi. Transport shovqini, xususan aviatsiya shovqini eng xavfli shovqin turlaridan biri hisoblanadi. Chunki u yuqori intensivlikka ega bo‘lib, qisqa vaqt ichida kuchli akustik ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroport atrofida maktablar, bolalar bog‘chasi, tibbiyot muassasalari, “Toshkent davlat transport universiteti” va ko‘p qavatli turar joy binolarining joylashuvi shovqin muammosining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra doimiy aviatsiya shovqini bolalar va o‘smirlarning o‘qish jarayoniga, keksalr hamda surunkali kasalligi bor shaxslarning sog‘lig‘iga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu holatni o‘rganish maqsadida men ilmiy rahbarim bilan birgalikda aeroport yaqinidagi aholi yashash hududida shovqin darajasini maxsus qurilma yordamida o‘lchab chiqdik(1-rasm).



1-rasm. O‘lchash jarayoni

O‘lchash jarayonida samolyotlarning uchib-qo‘nish vaqtida shovqin darajasi ruxsat etilgan sanitariya me’yorlaridan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Rasmda ko‘rib turganizdek maxsus shovqin o‘lchagich asbobi yordamida olingan natijalar bu hududda yashovchi aholining doimiy ravishda kuchli shovqin ta’siriga duch kelishini ko‘rsatadi. Olingan natijalar amaldagi sanitariya – gigiena me’yorlari bilan solishtirildi. Ya’ni GOST 12.1.003–83 va SanPiN 2.2.4/2.1.8.562–96 talablariga ko‘ra, aholi yashaydigan hududlarda shovqin darajasi kunduzgi vaqtda 55 dBA, tungi vaqtda esa 45 dBA dan oshmasligi lozim. Aeroportga yaqin hududlarda qayd etilgan shovqin darajasi ushbu me’yorlardan bir necha barobar yuqori bo‘lib, aholining salomatligi va hayot sifati uchun jiddiy xavf tug‘dirib kelmoqda. Xususan bunday shovqin natijasida uyqu buzilishi, asabiylik, stress holati, bosh og‘rig‘i hamda bolalarning samolyot

tovushidan darsga bo'lgan e'tiborini jamlay olmasligi kabi bir nechta muammolar kelib chiqadi. Uzoq vaqt davom etgan shovqin esa yurak-qon tomir kasalliklari xavfini ham oshirishi mumkin.

Shu sababli ham aeroportni shahar markaziga yaqin joyda joylashuvi aholining hayot sifati pasayishiga olib kelmoqda. Ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasida aeroportlar shahar tashqarisiga ko'chirilgan, bu esa aholi uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilgan. Misol uchun Fransiyada, Parij Orly aeroporti avval shaharga juda yaqin joylashgan edi, keyinchalik esa aviatsiya oqimi oshganligi sababli shahar markazidan taxminan 25 km uzoqlikda qurilgan. Buyuk Britaniyada ham London Heathrow shaharga yaqin joylashgan edi, bu esa keyinchalik kuchli shovqin muammosini keltirib chiqarganligi uchun Gatwick, Stansted va Luton kabi aeroportlar London tashqarisida 40-60 km uzoqlikda joylashgan.



2-rasm. Kansai xalqaro aeroporti

Ushbu rasmda ko'rib turganizdek Yaponiyada ham Osaka Itami aeroporti shahar ichida joylashgani bir qancha noqulayliklar tug'dirgani sababli Kansai xalqaro aeroporti sun'iy orolda shahardan uzoqda qurilgan(2-rasm).

Xulosa qilib aytganda, o'tkazilgan shovqin o'lchov natijalari asosida aeroportning aholiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatayotgani isbotlandi. Aholi salomatligini muhofaza qilish hamda shaharni barqaror rivojlantirish uchun aeroportni shahardan tashqariga ko'chirish kerak. Men ilmiy rahbarim bilan shovqinni o'lchashni 2025-yil aprel oyida o'lchab chiqib shu xulosaga kelgan edik. So'ngi kunlarda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yil avgust oyida yangi xalqaro aeroportni Toshkent viloyatida, shahardan tashqarida joylashtirish bo'yicha loyiha mavjudligini ma'lum qildi va projekt ustida ishlanilayotganini e'lon qildi. Bu qurilish rasman 2025-yil 16-17-oktabrda boshlangan. Hamda bu yangi aeroportga ko'chib o'tish 2030-yilga qadar rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. Aviatsiya transportini rivojlantirish strategiyasi. — Toshkent, rasmiy hujjatlar to‘plami.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent shahrining demografik va transport ko‘rsatkichlari. — Statistik ma’lumotlar to‘plami.
3. Xolmatov A., Rahimov B. Shaharsozlik va transport infratuzilmasini rivojlantirish muammolari. — Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
4. World Bank. Urban Transport and Airport Relocation Practices. — Analitik hisobotlar to‘plami.
5. UN-Habitat. Sustainable Cities and Transport Infrastructure. — BMT hisobotlari.
6. Karimov N. Yirik shaharlarda aeroportlarning joylashuvi va ekologik ta’siri // “Transport va logistika” ilmiy jurnali.